

 Factor
books

BILOL JIVALEK

*DARD ETMA,
SABR ET*



*To'siqlarni yengib
o'tganingdagina
iymoning butlashadi*

Bilol Jivalek
Dard etma, sabr et. Esse [Matn] / Bilol Jivalek. —
Toshkent: “Factor books”, 2022. — 160 b.

UO‘K 82-31
KBK 84 (5Turk)
J 59

Turk tilidan Nodirabegim JAMSHID QIZI tarjimasi

ISBN 978-9943-8481-0-8

© BILOL JIVALEK



Qadrdon kitobxon!

Har bir inson, har bir ongli bandasida o‘ziga yarasha dard, tashvish, iztirob bo‘lishi tabiiy. Ammo biz bu mashaqqatlarni qanday yengib o‘tamiz? Yengib o‘ta olamizmi? Ichimizda bizga qarshi qilich tutgan g‘animimiz bo‘lmish nafs ustidan qo‘limiz baland kelyaptimi? Keling, bugun siz bilan qo‘lingizdagi kitob orqali bir suhbat qilsak. Har birimizning ko‘nglimizdan bir bora bo‘lsa-da, “Aslida, iymonim butmikin?” degan ikkilanish o‘tgan bo‘lishi kerak.

Zotan, aksar hollarda nafsimizga
keng yo‘l ochib berishga moyil
bo‘lib qolamiz. Alaloqibatda, qalbimiz
yaralanadi. Qalb xastalanganda esa
halovatimiz yo‘qoladi. Ammo bu dardning
davosi bor — sabr! Aloha, qalbning barcha
xastaliklariga sabrning masalliqlaridan malham
tayyorlash mumkin ekan.

Bugun biz sizga ana shu ilmning bir
chimdigidan ilindik. Chekayotgan azobingizga
bardosh, sizga yo‘ldosh — sabringiz bo‘lsin!
Aziz o‘quvchi, yana bir mutolaa saodati qutlug‘
kelsin!



Ba'zan ruhimiz tushib ketadi.

Ruhimiz bilan birga g'amga botamiz, yolg'iz qolamiz, nochorlashamiz...

Qalbimizni go'yo tuman qoplab oladi.

Zaminning shafqatsiz bo'ronlariga taslim bo'lamiz.

Uzoq makonlarga, olis yerlarga qochib ketgimiz keladi. Lekin hatto joyimizdan qimirlashga ham o'zimizda mador topolmaymiz.

Umidlarimiz puchga aylanadi, yo'l tugaydi, jarning labida qaqqayib turib qolamiz.

Go'yo butun borliq bizning chorasizligimizdan zavqlanayotgandek tuyuladi.

Va birdan xayolimizga Alloh keladi.

"Sen borsan, yo Rabbiy!" deymiz.

Va Uning nomi bilan qaytadan jonlanamiz, yuzimizga mamnuniyat yuguradi. Qop-qora tumanni yorib chiqamiz. Qorga ham, bo'ronga ham taslim bo'lmasdan, qalbimiz va yuzimizni Uning qiblati tomon buramiz.

Uning sevgisi bilan qishlar bahorga, jarliklar esa tep-tekis yo'lga aylanadi. G'am-tashvishlar qora bulutdek tarqalib ketadi va osmonda yana quyosh charaqlaydi.

*Sabr bilan,
Sukut bilan,
Tavakkul bilan qalbingizni tinchlantiring.
Unga ishoning!
Tilingiz bilan emas, dilingiz bilan Unga
ishoning.
Axir shoir nima degandi:*

*“Eshigingga keldim men g‘arib,
Dardlarimga O‘zingsan tabib!
Ostonangdan haydama meni,
Men eng maqbul manzilga keldim”.*

*Allohning dargohidan panoh istab kelgan hech
bir banda bo‘sh qo‘l bilan ortga qaytmaydi.*



Menga sabr bilan sevishni o‘rgata olasanmi?

Keling, eng avvalo, muhabbat bilan yashashni o‘rganamiz. Chunki muhabbatsiz hayot chechaksiz bahorga o‘xshaydi. Unda na rang bor, na yashash zavqi... Qalbimizda qanday qilib sabr va muhabbatni birgalikda jo qilish mumkinligi haqida siz uchun yozgan bir hikoyam misolida aytib bermoqchiman.

Qadim zamonlarda yoshi ulug‘roq bir kishi donishmandning huzuriga boribdi. Hamma davra qurib o‘tirgan holda donishmandni jon qulog‘i bilan tinglayotganini ko‘rgan haligi odam ham o‘ziga qulay joy topib, u ham donishmandni qiziqib tinglay boshlabdi. Donishmand ishq haqida va‘z o‘qir edi:

– Qup-quruq atirgul bo‘lgandan ko‘ra yamyashil buta bo‘lgan afzaldir. Ishqsiz odam qurib borayotgan daraxtga o‘xshaydi. Na soyasida birov o‘tirib dam oladi, na yonidan kimdir o‘tadi... Uning hamrohi ham bo‘lmaydi. Doimo yolg‘iz qoladi.

Siz insonmisiz, unda ishqni izlab toping! Oshiq bo‘ling! Ishqni qalbingizga jo aylang, ko‘nglingizni yangidan bunyod eting. Hayotingiz gul bilan bezalsin, bog‘-u bo‘ston bo‘lsin. Lekin bu bilan ham qanoatlanib qolmang, azizlar. Qalbingizga ekan bu ishq nihollarini mehr bulog‘i-la sug‘oring.



Siroti mustaqimning eng qisqa va eng oson ta'rifi Islomda. Musulmon bo'lib tug'ilishdan ko'ra buyuk saodat bormi?

Shu qadar omadimiz bor ekan, nima uchun Alloh tomon bo'lmasligimiz kerak? Nega bu go'zal ne'matga e'tibor bermaslik va nonko'rlik bilan kaftimizga qo'ngan mangu baxtni o'zimizdan uzoqlashtirishimiz kerak? Unday bo'lsa, oxiratda oh-voh qilishga ham haqqimiz yo'q. Chunki u yerda beradigan bitta ham javobimiz bo'lmaydi.

“Habibim! Agar Sen bo'lmaganingda, men olamlarni yaratmagan bo'lardim”, deb buyurgan Alloh taoloning payg'ambariga munosib ummat bo'lmaslik uchun inson aqlini yo'qotgan bo'lishi kerak. Uning ummati — ummatlar ichida eng sharafli, eng hurmatlisidir. Bizning vazifamiz uning ummati bo'lishga loyiq bo'lishdir.

U shunday payg'ambarki, “Men Allohning nuridanman, ummatim esa mening nurimdandir!” deb bizni ulug' darajaga munosib ko'rdi. Eng muhimi, uning suyuqli ummatlaridan biri bo'lishga harakat qilishdir.

“

Sabr — bu taqdirning to‘g‘ri yo‘li. Shoshqaloqlik va xudbinlik taqdir yo‘liga to‘siq qo‘yuvchi shaytonlardandir. Sabr nafsning dushmanidir, chunki shayton bizni aldash uchun nafsimizdan foydalanadi. Nafs bilan kurash so‘nggi nafasgacha davom etadi. So‘nggi nafas chiqqanda, hamma o‘z yo‘lidan ketadi. Biri tuproqqa, ikkinchisi Haqqa...

”





“ Hayotda umidsizlik va tushkunlikni boshdan kechirmaydiganlar iymoni kuchli bo‘lgan bandalardir. Iymonni mustahkamlovchi malham: go‘zal axloq, ibodat va Allohga tavakkal qilmoqlikdir. Chunki Alloh taolo yarim iymonni emas, to‘la-to‘kis iymonni yaxshi ko‘radi. Yarim iymon esa odamni yarim yo‘lda qoldiradi.

”